



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Zulayxo Bobonorova Qudratovna

Samarqand shahar 14-maktab biologiya fani o`qituvchisi

BIOLOGIYA DARSLARIDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, biologiya darslarida innovatsion metodikalar foydalanish usullari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM" ta'lif, metodika, interfaol innovatsion metod, modul, kompetensiya, innovatsion.

Резюме. В этой статье представлена информация о том, как использовать инновационные методы на уроках биологии.

Ключевые слова: Обучение STEAM, методика, интерактивный инновационный метод, модуль, компетенция, инновации.

Biologiyani o`qitishda eng avvalo o`quvchilarni biologyaning asosiy tushunchalari, g`oya, nazariya, qonuniylarli, xalq xo`jaligining turli tarmoqlarida tutgan o`rni, biologik bilimlarni o`zlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish, o`zlashtirilgan bilimlardan muammoli vaziyatlarda foydalanish nazarda tutiladi. O`quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va insonning tabiat va jamiyatga ongli munosabatini



tarkib toptirish bilan uzviy bog`langan holda ta`lim-tarbiya tizimi vujudga keltiradi. Innovatsion metodika haqida fikr yuritishdan avval ta`lim va uning sifati haqida ikki og`iz so`z.(Sxemaga qarang)

Ko`rib turganingizdek ta`lim berish, fanlarni o`qitish bir tomonlama jarayon emas ekan. Barcha yo`nalishlarda aloqa o`rnatilsa, “zanjir”da uzulish bo`lmaydi. Shulardan kelib chiqqan holda fanlarni o`qitishga innovatsion yondashsak to`g`ri bo`ladi. Ayrim faktlarga e`tibor qaratsak. “Bolaning ongida biror hodisaning mustahkam o`rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko`prog`iniko`zi, qulog`i, tovush organi, muskul, sezgi va hatto hid bilish va ta`m bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi lozim.”- K.D.Ushinskiy. “Nimani, qanday, kimni o`qitishni biling va shunga qarab darsga tayyorlaning” Ya.O.Kamenskiy. “O`tkazgan natijalarga ko`ra 4-sinf o`quvchilarini orasidan 43% bolalar o`qigan narsasini tushuna oladi. Uy vazifalarini bajarish uchun 28% o`quvchi 30-60 daqiqa, 25% o`quvchi 30 daqiqa va undan kam, 22% 1-2 soat, 17% o`quvchi 2 soatdan ko`proq vaqt sarflashi ma`lim bo`lgan.”- YUNISEF ma`lumoti. Endi maqsadga ko`chsak. Xo`sh yuqorida aytilganidek o`quvchilarining butun vujudi bilan fanlarni o`zlashtirishi uchun, nimani, kimni, qanday o`qitishni bilishi uchun, o`qigan narsasini tushuna oladigan 43% bolalarning foizini oshirish uchun pedagoglardan nima talab qilishini tushunib yetdingiz chamamda. Men fanlarni o`qitishning “Kompleks bilim yoki topshiriqlar zanjiri” metodikasi haqida aytib o`tmochiman.(Ish faoliyatim asosida). Bunda o`qituvchidan birgina rasm yoki topshiriq talab etiladi. Ko`rib turganingizdek birgina rasm o`quvchilarini o`nlab mavzularni kompleks tarzda bilishga undaydi. Bunday misollarni har sinf va har bir mavzu uchun keltirish mumkin. 9-10-sinfda moddalar almashinuvni mavzisining fotosintez, to`qimalar, hazm organlar sistemasi mavzulari bilan, 11-sinfdagagi “Namlik ekologik omil mavzusi” 6-sinfdagagi aboitik omillar mavzulari bilan bog`likligi va hakozolar yaqqol misol. Bundan tashqari kompleks ta`limda o`quvchilar guruhi yoki jamoasiga mavzuni “blok”lar, modular, kichik qismlarga bo`lib o`rganish, dars so`ngida yagona xulosa atish ham mumkin.

Bu metodikaning afzalliklari:

- O`quvchilarni fanlar va mavzularni bilish darajasini oshiradi;
- Bir mavzuning keyingisi bilan bog`ligini bilagn holda barcha mavzuni birdek o`zlashtirishga undaydi;
- O`quvchilarning keng mantiqiy fikrlash ko`nikmalarini mustahkamlaydi;
- Oliy ta`lim test jarayonlarida savollarni tez anglash va to`g`ri javob berishiga ko`maklashadi;
- “STEAM” ta`limiga ko`p jihatlardan o`xshash;
- Darslarda xilma-xillikni oshiradi;
- Kam harakat katta natija berishga asoslangan.

Fanlarni o`qitishdan maqsad o`quvchilarning fanlarga oid tushuncha, jarayon va boshqalarni bilish, tasavvur qilish, sintez qilish, umumlashtirishlarish kompitensiyalrini shakllantirishdir. Shunday ekan bu jarayonda ota-onalarning o`rnini ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun har bir sinfdagi o`quvchining ota-onasi bilan birdan aloqa o`rnatish mumkinlini aytib o`tmooqchiman. Nazorat darslarida o`quvchilar nazorat daftarlarida topshiriq bajargunlariga qadar sinf-konspekt daftarlar nazoratini o`tkazib, har bir o`quvchining daftar yuritishi bo`yicha qaydlarni yozib chiqish mumkin. Men o`quvchilardan ota-onasi yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslarga imzolatib kelishini talab qilaman. Kelgusi darsda nazoratini o`tkazaman. Demak, “onlayn” tarzda ota-onalar bilan ishslash mumkin ekan va natijasi juda yuqori bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, fanlarni o`qitishda pedagoglardan o`quvchi yoshlarning bilim samaradorligining yuqori bo`lishida darslarga kreativ yondashuvi, eng ma`qul metodikalar usida ishlashi, faoliyatini takomillashtirib borishi talab qilinadi

Foydanilgan adabiyotlar

1. G`afurov, A. Abdukarimov, J. Tolipova, O. Ishankulov, M. Umaraliyeva,
2. Abduraxmonova Biologiya. 10-sinfi uchun darslik.T.: «Sharq», 2017.
3. O`zbekistonning o`simliklar dunyosi. Toshkent o`qituvchi 1997.
4. A.Zikiryayev, A.To`xtayev, I.Azimov, N.Sonin. 9-sinf. Biologiya. Toshkent 2010 yil.
5. J.O. Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalar. O`quv qo`llanma. Toshkent 2004.